

## Insoniyatga berilgan sovg'a

29-yanvar kuni 4-TTJda institut psixolog M. Muxamedova GM fakulteti 1 – 4-kurs talaba qizlaridan Xotin -qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida, oila va atrof muhitdagilardan tazyiqqa uchrash muammolarining qay darajada aktualligini aniqlashga qaratilgan so'rovnama o'tkazdi. So'rovnama olingandan keyin "Men insoniyatga berilgan sovg'amani" mavzuida trening mashg'ulot o'tkazildi. Mashg'ulotga YERB fakulteti 1-kurs talabasi O. Umaraliev trenerlik qildi. Treningda "O'rgimchak to'ri" mashg'uloti orqali ishtirokchilar bir – birlari bilan tanishib olishgach, "Men insoniyatga berilgan sovg'amani" trening mashg'uloti bilan davom ettirildi. Ishtirokchilarga aylana bo'lib o'tirib olish va soat strelkasi bo'ylab "Men insoniyatga berilgan sovg'amani, chunki..." tarzida gapni davom ettirish ko'rsatmasi berildi.



Bu mashg'ulot guruhiy psixokorreksion faoliyatda va emotsiyal-hissiy sohadagi buzilishlarni korreksiya qilish, ishtirokchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi va o'zini o'zi baholash darajasini oshirish, ichki uyg'unlikni buzilishi(disgarmoniya)ni bartaraf etish, ruhiy muvozanatga keltirish, boshqalarining va o'zining holatini tushuna olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Treningda barcha ishtirokchilar: talabalar, 4-TTJ tarbiyachi pedagogi N. Isqulovalar faol qatnashishdi va ko'pchilik qizlarda o'z trenerlik qobiliyatlarini sinab ko'rish istagi paydo bo'lgani quvonarli holat.

**TIQXMMI matbuot xizmati**